PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

BADIIY MATNNING MAZMUNIY-ESTETIK QATLAMLARI

Saidova Nodira Mustakimovna
Buxoro davlat universiteti, O‘zbek tili
va adabiyoti kafedrasi
o‘qituvchisi (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.24218717

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy matnning mazmuniy-estetik qatlamlari, ularning o‘zaro munosabati hamda badiiy asar mohiyatini ochib berishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Badiiy matnning mazmuniy yaxlitligi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi, ramziy ifodalar va estetik ta’sir vositalarining o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Shuningdek, matnning yuzaki va ichki mazmun qatlamlari, muallif maqsadi, badiiy tafakkur hamda kitobxon idrokining mazmun shakllanishidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Badiiy matnni mazmuniy va estetik tahlil qilish orqali uning semantik imkoniyatlari, badiiy jozibasi hamda ta’sirchanlik xususiyatlarini aniqlash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.
Kalit so‘zlar: badiiy matn, mazmuniy qatlam, estetik qatlam, badiiy obraz, badiiy tafakkur, lingvopoetika, ramziylik, muallif maqsadi, estetik ta’sir, matn tahlili.

Аннотация. В данной статье анализируются содержательно-эстетические уровни художественного текста, их взаимосвязь и значение в раскрытии идейно-художественной сущности произведения. Рассматриваются содержательная целостность художественного текста, его идейно-художественные особенности, система образов, символические выражения и своеобразие средств эстетического воздействия. Кроме того, научно-теоретически обосновываются вопросы поверхностного и глубинного уровней содержания текста, авторского замысла, художественного мышления и роли читательского восприятия в формировании смысла произведения. Особое внимание уделяется выявлению семантических возможностей, художественного своеобразия и выразительности текста посредством лингвопоэтического и эстетического анализа.

Ключевые слова: художественный текст, содержательный уровень, эстетический уровень, художественный образ, художественное мышление, лингвопоэтика, символизм, авторский замысел, эстетическое воздействие, анализ текста**.**

Abstract. This article analyzes the content and aesthetic layers of literary texts, their interrelationship, and their significance in revealing the ideological and artistic essence of a literary work. It examines the content integrity of literary texts, their ideological and artistic features, the system of images, symbolic expressions, and the distinctive characteristics of aesthetic devices. Furthermore, the article provides a theoretical and scholarly foundation for understanding the surface and deep layers of textual meaning, the author's intention, artistic thinking, and the role of reader perception in the formation of meaning. Particular attention is paid to identifying the semantic potential, artistic originality, and expressive qualities of literary texts through linguopoetic and aesthetic analysis.

Keywords: literary text, content layer, aesthetic layer, literary image, artistic thinking, linguopoetics, symbolism, author's intention, aesthetic impact, text analysis.

Adabiyotshunoslikda badiiy matnni o‘rganish jarayoni uning mazmun-mohiyati, shakliy xususiyatlari hamda ichki badiiy-estetik qatlamlarini yaxlit holda tahlil etishni taqozo qiladi. Zero, har qanday badiiy asar muayyan davrning madaniy tafakkuri, falsafiy qarashlari va estetik mezonlarini o‘zida mujassam etgan murakkab ma’naviy hodisadir. Shu jihatdan struktur yondashuv badiiy matnning tashqi ifoda shakli bilan cheklanib qolmay, uning ichki qurilishi, mazmuniy munosabatlari, ramziy obrazlari va yashirin ma’no qatlamlarini aniqlashda muhim nazariy-metodologik asos vazifasini bajaradi. Intertekstuallik yondashuvi orqali adabiy hodisalarning shakllanish qonuniyatlari, turli davrlar badiiy tafakkuri o‘rtasidagi uzviylik va o‘zaro ta’sir jarayonlarini chuqurroq anglash imkoniyati yuzaga keladi. Adabiyotshunoslik yo‘nalishida bu tushuncha ancha kengroq, ya’ni madaniy va falsafiy muloqot kontekstida ko‘rib chiqiladi. Adabiyotshunoslikda shakllangan struktur yo‘nalish insoniyatning o‘tmishdagi va bugungi kundagi badiiy tafakkur sarchashmalarini aniqlash, ularni ilmiy ta’riflash hamda tavsiflashni maqsad qiladi. Bu yondashuvda diqqat markazi faqat so‘zlar ketma-ketligiga emas, balki matn ichidagi ichki estetik aloqalar, yashirin ma’nolar va ramzlar tizimiga qaratiladi.

Matn hech qachon alohida, yopiq muhitda mavjud bo‘lmaydi. U doimo global madaniy makonda, ya’ni boshqa matnlarning bepoyon qurshovida yashaydi. Bu jarayonda matnlar o‘rtasida uzluksiz harakat sodir bo‘ladi. Jumladan, o‘zaro ta’sir va bog‘liqlik: har bir yangi asar o‘zidan oldingi adabiy an’analarga tayanadi va ulardan quvvat oladi. O‘zaro almashinuv va boyitish: matnlar bir-biri bilan dialogga kirishib, yangi ma’no qatlamlarini kashf etadi va bir-birining g‘oyaviy mazmunini to‘ldiradi. Bir-birini taqozo etish va singib ketish: biror bir matnni uning atrofidagi madaniy va tarixiy kontekstdan ajratib tushunib bo‘lmaydi.

Adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov o’zining “Nazariy poetika masalalari: muallif, janr, xronotop” nomli tadqiqotida shunday e’tirof etadi: “matnosti asarning badiiy qiymatini belgilovchi bosh mezondir. Haqiqiy adabiyot matn yuzasidagi gaplardan emas, balki ana shu so‘zlar orasidagi bo‘shliqlarda, satrlar ortida yashiringan ma’nolardan tug‘iladi. Matnostini o‘qiy olish kitobxondan yuksak adabiy did va tayyorgarlikni talab etadi.” Badiiy matnning ichki mazmun qatlamlari, tagma’nosi, ramziy ifodalari, ishoralari hamda muallif tomonidan ataylab ochiq qoldirilgan ma’no bo‘shliqlarini anglatadi. Yozuvchi har doim ham o‘z fikrini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon etmaydi. Ba’zan birgina sukut, nigoh, peyzaj tasviri, qahramonning aytilmagan so‘zi yoki tugallanmagan fikr butun bir ruhiy holatni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday holatlarda matnning tashqi qatlami ortida ikkinchi, uchinchi va hatto undan ham chuqurroq ma’no qatlamlari mavjud bo‘ladi.

Binobarin, har qanday matn o‘z bag‘riga uzoq va yaqin o‘tmishda yaratilgan yuzlab boshqa asarlarning parchalari, ohanglari, syujet chiziqlari yoki g‘oyalarini (ko‘pincha alluziya, reminissensiya shaklida) qamrab oladi. Shu bilan birga, u kelajakda yaratiladigan yangi matnlar tarkibiga ham muallif tomonidan anglashilgan holda (ongli ravishda iqtibos keltirish orqali) yoki anglashilmagan holda (madaniy xotira mahsuli sifatida) qo‘shilib, singib ketaveradi.

Matnostilik, avvalo, badiiy matnning ichki mazmun qatlamlari, tagma’nosi, ramziy ifodalari, ishoralari hamda muallif tomonidan ataylab ochiq qoldirilgan ma’no bo‘shliqlarini anglatadi. Yozuvchi har doim ham o‘z fikrini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon etmaydi. Ba’zan birgina sukut, nigoh, peyzaj tasviri, qahramonning aytilmagan so‘zi yoki tugallanmagan fikr butun bir ruhiy holatni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday holatlarda matnning tashqi qatlami ortida ikkinchi, uchinchi va hatto undan ham chuqurroq ma’no qatlamlari mavjud bo‘ladi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanida Otabek va Kumush munosabatlarini faqat ikki yoshning muhabbati sifatida talqin qilish asarning mazmunini to‘liq ochib bermaydi. Ularning taqdiri orqali davrning ijtimoiy munosabatlari, eskicha qarashlar, inson erki, milliy qadriyatlar va jamiyatdagi ziddiyatlar ham badiiy ifodasini topadi. Demak, asarni chuqur anglash uchun voqealar rivojini kuzatishning o‘zi yetarli emas, balki ularning ortidagi ijtimoiy, ma’naviy va falsafiy mazmunni ham idrok etish zarur.

Shuningdek, matnostini anglashda kitobxonning intellektual salohiyati, hayotiy tajribasi, adabiy-estetik didi va badiiy tafakkuri muhim o‘rin tutadi. Chunki har bir kitobxon asarni o‘z dunyoqarashi, bilim darajasi va ruhiy tajribasidan kelib chiqib qabul qiladi. Bir kitobxon uchun oddiy tasvir bo‘lib tuyulgan detal boshqa bir kitobxon uchun chuqur ramziy ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan badiiy asar muallif va kitobxon o‘rtasidagi o‘ziga xos ijodiy muloqot maydonidir. Muallif ma’no yaratadi, kitobxon esa uni anglash, tahlil qilish va o‘z tafakkuri orqali qayta kashf etish jarayonida ishtirok etadi.

Biroq matnostini faqat murakkab ramzlar yoki yashirin ma’nolar bilan bog‘lash ham to‘g‘ri emas. Har qanday badiiy asarda matnostining mavjudligi uning sun’iy ravishda murakkablashtirilganini anglatmaydi. Muhimi, asarning shakli va mazmuni o‘rtasidagi uyg‘unlik, obrazlarning tabiiyligi hamda muallif ifodalagan badiiy haqiqatning teranligidir. Uzoq Jo‘raqulovning mazkur qarashlari badiiy adabiyotni yuzaki o‘qishdan chuqur tahlil va mushohada darajasiga olib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Menimcha, haqiqiy kitobxon asarda faqat nima deyilganini emas, balki nima uchun aynan shunday deyilganini, nimalar aytilmay qolganini va bu sukut ortida qanday ma’nolar yashiringanini ham anglay olishi kerak. Zero, badiiy adabiyotning sehri ham, estetik ta’sir kuchi ham ko‘p jihatdan uning ko‘zga ko‘rinmas ma’no qatlamlarini kashf etishda namoyon bo‘ladi. Matnni o‘qish — so‘zlarni anglash bo‘lsa, matnostini anglash — so‘zlar ortidagi hayotni, inson ruhiyatini va muallif badiiy tafakkurini kashf etishdir. Bunday yondashuv kitobxondan nafaqat matn mazmunini idrok etishni, balki undagi badiiy detallar, ramzlar, timsollar, ruhiy kechinmalar va ichki ziddiyatlarga ham alohida e’tibor qaratishni talab qiladi. Chunki badiiy asarda har bir so‘z, har bir tasvir, hatto qahramonning sukuti yoki aytilmagan fikri ham muayyan estetik vazifani bajarishi mumkin. Ba’zan muallif qahramonning ichki dunyosini ochib berish uchun uning his-tuyg‘ularini bevosita ifodalashdan ko‘ra, birgina nigoh, imo-ishora, harakat yoki ramziy detal orqali murakkab ruhiy holatni tasvirlaydi. Bunday o‘rinlarda matnning yuzaki mazmuni bilan cheklanib qolgan kitobxon asarning eng muhim ma’no qatlamlarini anglamay o‘tishi mumkin.

Shu jihatdan, matnostini tahlil qilish jarayonida kitobxonning intellektual salohiyati, hayotiy tajribasi, badiiy-estetik didi va mustaqil mushohada yuritish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har qanday badiiy asar o‘quvchiga tayyor xulosalarni taqdim etavermaydi. Aksincha, ayrim asarlar o‘zining ko‘pma’noliligi, ochiq qolgan savollari va yashirin ishoralari orqali kitobxonni fikrlashga, voqelikni turli nuqtayi nazarlardan baholashga undaydi. Natijada o‘qish jarayoni oddiy axborot qabul qilishdan ijodiy tafakkur va ma’naviy izlanish jarayoniga aylanadi.

Ayniqsa, zamonaviy adabiyotshunoslikda matn va matnosti munosabatlarini o‘rganish badiiy asarning g‘oyaviy-badiiy mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bunda muallifning bevosita bayon qilgan fikrlari bilan cheklanmasdan, uning badiiy niyati, obrazlar tizimi, kompozitsion qurilishi, ramziy ifoda vositalari hamda tarixiy-madaniy kontekstini ham hisobga olish lozim. Chunki asarning asl mohiyati ko‘pincha aynan shu unsurlarning o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

Demak, badiiy asarni chuqur anglash — bu faqat muallif fikrini tushunish emas, balki uning fikrlari bilan bahslashish, ularga munosabat bildirish va matn zamiridagi hayotiy haqiqatlarni mustaqil ravishda kashf etish demakdir. Haqiqiy kitobxon matnni shunchaki o‘qib tugatmaydi, balki u bilan fikran yashaydi, undagi savollarga javob izlaydi va asar orqali o‘zining inson, jamiyat hamda hayot haqidagi qarashlarini ham qayta ko‘rib chiqadi. Shu ma’noda, matnostini anglash badiiy

adabiyotni idrok etishning yuqori bosqichi bo‘lib, u kitobxonni oddiy kuzatuvchidan faol mushohadachi va mustaqil tafakkur sohibiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Bertels. Navoiy va Attor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2005.
2. U.Jo’raqul. Nazariy poetika masalalari:muallif, janr, xronotop“ (2015-yil, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti)
3. I.Haqqul. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan, 2007. (Mumtoz matnlarni idrok etish va o‘quvchi psixologiyasi masalalari tahlil qilingan).
4. J.Eshonqul. Fol daryosi aks-sadolari: Epik tafakkur va mifologik xotira. – Toshkent: Fan, 2011. (Madaniy va mifologik xotiraning matndagi o‘rni haqida).
5. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. (Talmeh va boshqa poetik san’atlarning semantik tahlili).
6. Genette, Gérard. Palimpsests: Literature in the Second Degree. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1997. (Matn ichidagi matn qatlamlari, transtekstualik va talmeh mexanizmlari haqida).
7. Saidova N.M. Interpretation Skills in the Analysis of Literary Text. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. http://journal-b.uz/index.php/01/article/view/xalqaro konferensiya to'plami, 2025-yil,16-fevral.120-124
8. Saidova N.M. Intertextuality in Alisher Navoi's Works. Xorazm Ma’mun akademiyasi ilmiy axborotnomasi. 11/ 5 -son, 2025.80-85-b.